

“RIITM” SERVIDAN FOYDALANISH BO‘YICHA FOYDALANUVCHI KELISHUVI

Ushbu foydalanuvchi kelishuvi (keyingi o‘rinlarda – **“Kelishuv”**) “UNITEL” MChJning (keyingi o‘rinlarda – **“Kompaniya”**) Internet tarmog‘i foydalanuvchisiga (keyingi o‘rinlarda – **“Foydalanuvchi”**) Kompaniya tomonidan Ilovada taqdim etiladigan “riitm” servisdan (keyingi o‘rinlarda – **“Servis”**) mazkur Kelishuvda bayon etilgan shartlar asosida foydalanish bo‘yicha rasmiy taklifi (oferta) hisoblanadi. Kompaniya va Foydalanuvchi bundan keyin birgalikda **“Tomonlar”**, alohida esa **“Tomon”** deb yuritiladi.

1. ATAMALAR VA TA’RIFLAR

- 1.1. **“Bank kartasi”** – bank tomonidan Foydalanuvchi nomiga chiqarilgan, tegishli bankda Foydalanuvchining hisobvarag‘i mavjudligini tasdiqlovchi va to‘lovni amalga oshirish huquqini beruvchi shaxsiylashtirilgan to‘lov vositasi;
- 1.2. **“Cheklangan foydalanish”** – Ilovani o‘rnatib, ro‘yxatdan o‘tgandan so‘ng Foydalanuvchiga taqdim etiladigan Servisdan foydalanishning bazaviy rejimi bo‘lib, u cheklangan funksiyalar to‘plamiga, jumladan, chart, mavjud playlistlar va radioni tinglash imkonini beradi;
- 1.3. **“Shaxsga doir ma’lumotlarga ishlov berish”** – shaxsga doir ma’lumotlarni yig‘ish, tizimlashtirish, saqlash, o‘zgartirish, to‘ldirish, ulardan foydalanish, ularni berish, tarqatish, uzatish, shaxssizlantirish va yo‘q qilish bo‘yicha bir yoki bir nechta harakatlarni amalga oshirish;
- 1.4. **“Shaxsga doir ma’lumotlar”** – muayyan jismoniy shaxsga taalluqli bo‘lgan yoki uni identifikatsiya qilish imkonini beruvchi, elektron, qog‘oz va (yoki) boshqa moddiy vositada qayd etilgan axborot;
- 1.5. **“Obuna”** – Foydalanuvchiga belgilangan to‘lov evaziga 30 (o‘ttiz) kalendar kun muddatga Servisning to‘liq funksionalidan foydalanish huquqini taqdim etish. Obunani rasmiylashtirgan Foydalanuvchi uning amal qilish davrida Cheklangan foydalanish rejimini qo‘llamasdan Servisning barcha funksiyalaridan foydalanish imkoniyatini qo‘lga kiritadi;
- 1.6. **“Shaxsga doir ma’lumotlarga ishlov berish va ularni himoya qilish siyosati”** – O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq Shaxsga doir ma’lumotlarga ishlov berishning maqsadlari, huquqiy asoslari, prinsiplari, tartibi va shartlarini, shuningdek, ularni himoya qilish hamda shaxsga doir ma’lumotlar subyektlarining huquqlarini ta’minlash chora-tadbirlarini belgilaydigan hujjat bo‘lib, quyidagi manzilda joylashtirilgan: <https://beeline.uz/ru/yuridicheskie-dokumenty>;
- 1.7. **“Foydalanuvchi”** – Servisdan uning funksional maqsadiga muvofiq foydalanadigan jismoniy shaxs;
- 1.8. **“Ilova”** – “riitm” mobil ilovasi bo‘lib, u Foydalanuvchiga Servisga texnik kirish imkoniyatini, jumladan, ro‘yxatdan o‘tish, akkauntni boshqarish, Obunani rasmiylashtirish va Servis funksionalidan foydalanish uchun interfeysni taqdim etadigan dasturiy ta’minotdir;
- 1.9. **“Kompaniya sayti”** – Kompaniyaning quyidagi manzilda joylashgan rasmiy sayti: www.beeline.uz;
- 1.10. **“Servis sayti”** – Servisning quyidagi manzilda joylashgan rasmiy sayti: www.riitm.uz;
- 1.11. **“Servis”** – “riitm” servisi bo‘lib, u dasturiy, texnik va axborot yechimlari majmuasini o‘zida mujassam etadi hamda Foydalanuvchilarga ushbu Kelishuv shartlariga muvofiq audiofayllarni oqimli ijro (striming) rejimida tinglash, shuningdek, ularni izlash, tanlash va ijro etishni boshqarish imkoniyatini taqdim etadi;
- 1.12. **“Hudud”** – Servisdan foydalanishga ruxsat etilgan hudud, ya’ni O‘zbekiston Respublikasi hududi;
- 1.13. **“Hisob qaydnomasi”** – Foydalanuvchining abonent raqamini ro‘yxatdan o‘tkazish orqali yaratiladigan hisob qaydnomasi.

2. KELISHUV PREDMETI

- 2.1. Mazkur Kelishuvga muvofiq, Kompaniya Foydalanuvchiga Servisdan uning e’lon qilingan funksionalligi doirasida va belgilangan Hududda Cheklangan foydalanish rejimida foydalanish imkoniyatini beradi. Foydalanuvchi mazkur Kelishuv shartlariga rioya qilib, tegishli Obunani rasmiylashtirsa (to‘lovni amalga oshirsa), Servisdan to‘liq funksional asosida foydalanishi mumkin bo‘ladi.
- 2.2. Servisda ro‘yxatdan o‘tish orqali Foydalanuvchi ro‘yxatdan o‘tish vaqtida ko‘rsatilgan abonent raqamiga quyidagi mazmundagi xabarlarini qabul qilishga rozilik bildiradi: yangi audiomateriallar joylashtirilgani, maxsus takliflar paydo bo‘lgani, aksiyalar o‘tkazilayotgani haqida, shuningdek, boshqa reklama-axborot tusidagi xabarlar.

- 2.3. Foydalanuvchi tomonidan Servisda ro'yxatdan o'tkazilgan va audiofayllarni tinglash mumkin bo'lgan qurilmalar soni, shuningdek, bir nechta qurilmadan bir vaqtda foydalanish seanslari soni Kompaniya tomonidan belgilanadi va Servisning saytida ko'rsatiladi.
- 2.4. Servisda ro'yxatdan o'tish, Servisning funksional imkoniyatlaridan foydalanish, Foydalanuvchi tomonidan Obunani rasmiylashtirish ushbu Kelishuvni, shuningdek, u havola qiladigan barcha hujjatlarni to'liq va so'zsiz akseptlashni (qabul qilishni) anglatadi. Aksept hech qanday izohlarsiz yoki istisnalarsiz amalga oshiriladi. Ko'rsatilgan hujjatlar qoidalariga rozi bo'lmagan taqdirda, Foydalanuvchi Servisdan foydalanishni to'xtatishi shart.
- 2.5. Obunani rasmiylashtirib, Foydalanuvchi quyidagilarni tasdiqlaydi:
 - 2.5.1. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq muomalaga layoqatli jismoniy shaxs ekanligini;
 - 2.5.2. ro'yxatdan o'tishda taqdim etilgan shaxsiy ma'lumotlar va boshqa axborotning ishonchiligi hamda to'liqligini kafolatlaydi va ko'rsatilgan ma'lumotlarning aniqligi uchun to'liq javobgar hisoblanadi. Taqdim etilgan axborotdagi xatolar, noaniqliklar yoki uning to'liq emasligi bilan bog'liq barcha oqibatlar Foydalanuvchi zimmasiga yuklatiladi;
 - 2.5.3. ushbu Kelishuv va u havola qiladigan hujjatlar bilan tanishib chiqqanini, ularning mazmun-mohiyatini tushunganini va ularni to'liq hajmda so'zsiz qabul qilishini.
- 2.6. Mavjud funksiyalar ro'yxati, shuningdek, Servisdan yoki uning alohida bo'limlaridan foydalanish qoidalar, limitlari va boshqa cheklavlari Kompaniya tomonidan o'z ixtiyoriga ko'ra belgilanadi va Foydalanuvchini oldindan xabardor qilmasdan o'zgartirilishi mumkin. Bunday cheklavlar texnik, yuridik, tashkiliy yoki boshqa tusda bo'lishi mumkin.

3. FOYDALANISH HUQUQINI TAQDIM ETISH TARTIBI

- 3.1. Foydalanuvchini ro'yxatdan o'tkazish Ilova orqali amalga oshiriladi. Foydalanuvchi "Keyinroq ro'yxatdan o'tish" bandini tanlab, ro'yxatdan o'tishni kechiktirishga haqlidir. Bunday holda, Servisdan faqat Cheklangan foydalanish rejimida va tanishish maqsadida foydalanish mumkin bo'ladi. Obunani rasmiylashtirish uchun Foydalanuvchi ushbu Kelishuvning 3-bo'limida nazarda tutilgan tartibda ro'yxatdan o'tishi shart.
- 3.2. Ro'yxatdan o'tish chog'ida Foydalanuvchi abonent raqamini ko'rsatadi. Ro'yxatdan o'tkazish SMS-kod yordamida amalga oshiriladi. Foydalanuvchi tomonidan ko'rsatilgan abonent raqamiga noyob to'rt xonali SMS-kod yuboriladi. Foydalanuvchi ushbu kodni maxfiy saqlashi va uchinchi shaxslarga oshkor qilmasligi shart. Kod 120 (bir yuz yigirma) soniya davomida amal qiladi. Foydalanuvchi kodni 60 (oltmish) soniyadan so'ng qayta so'rashi mumkin. Foydalanuvchi ko'rsatilgan SMS-kodni Ilovaning tegishli interfeysidagi maxsus shaklga kiritadi. Kod muvaffaqiyatli tekshirilgach, ro'yxatdan o'tish yakunlangan hisoblanadi.
- 3.3. Muvaffaqiyatli ro'yxatdan o'tish natijasida Foydalanuvchi uchun shaxsiy Hisob qaydnomasi yaratiladi. Hisob qaydnomasining yaratilishi ro'yxatdan o'tish jarayoni yakunlanganini tasdiqlaydi.
- 3.4. Foydalanuvchi ro'yxatdan va avtorizatsiyadan o'tgandan so'ng uning Hisob qaydnomasi orqali amalga oshirilgan barcha harakatlar Foydalanuvchining o'zi tomonidan bajarilgan deb hisoblanishini hamda o'zi uchun tegishli huquqiy oqibatlarni, jumladan, Obunani rasmiylashtirish va uning uchun to'lovni amalga oshirishni keltirib chiqarishini tasdiqlaydi.

4. SHAXSGA DOIR MA'LUMOTLARGA ISHLOV BERISH

- 4.1. Mazkur Kelishuvni akseptlash va/yoki Servisda ro'yxatdan o'tish va/yoki uning funksional imkoniyatlaridan foydalanish quyidagilarni anglatadi: (i) Foydalanuvchining Shaxsiy ma'lumotlarga ishlov berish va ularni himoya qilish siyosatiga to'liq hamda so'zsiz roziligini, shuningdek, (ii) O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida, Shaxsiy ma'lumotlarga ishlov berish va ularni himoya qilish siyosatida hamda mazkur Kelishuvda nazarda tutilgan maqsadlarda o'zining shaxsiy ma'lumotlariga ishlov berilishiga aniq, ixtiyoriy va xabardor qilingan holda rozilik berganini.

5. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

- 5.1. Foydalanuvchi quyidagi huquqlarga ega:
 - 5.1.1. Kelishuv shartlariga muvofiq Servisdan foydalanish;
 - 5.1.2. Servisning ishlash shartlari va sifatiga oid barcha masalalar bo'yicha Kompaniyaga murojaat qilish.

5.2. Foydalanuvchining majburiyatlari:

- 5.2.1. mazkur Kelishuv matni bilan tanishib chiqish va uning shartlariga rioya etish;
- 5.2.2. Servisdan foydalanishda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga, shuningdek, uchinchi shaxslarning huquq va manfaatlariga rioya etish;
- 5.2.3. Servisning me'yoriy faoliyatining buzilishiga olib keladigan harakatlarni, jumladan, viruslar, troyanlar va boshqa zararli dasturlardan foydalanish kabi harakatlarni amalga oshirmaslik;
- 5.2.4. Ilovada / Servis Saytida mazkur Kelishuv shartlariga kiritiladigan o'zgarishlarni mustaqil ravishda kuzatib borish;
- 5.2.5. Servis faoliyatini beqarorlashtirishga qaratilgan har qanday harakatlarni amalga oshirmaslik, Servisga, unda joylashtirilgan intellektual faoliyat natijalariga ruxsatsiz kirishga urinmaslik, shuningdek, Kompaniya va/yoki uchinchi shaxslarning huquqlarini buzadigan boshqa har qanday harakatlarni sodir etmaslik;
- 5.2.6. ro'yxatdan o'tish/avtorizatsiya qilish uchun foydalaniladigan o'z hisob ma'lumotlarining maxfiy saqlanishini ta'minlash va ularning oshkor etilishiga yo'l qo'ymaslik;
- 5.2.7. ro'yxatdan o'tish/avtorizatsiya qilish uchun foydalaniladigan o'z hisob ma'lumotlari yo'qolgan yoki ularning maxfiyligi buzilganligiga (oshkor etilganligiga) oid asosli shubhalar mavjud bo'lgan taqdirda, bu haqda Kompaniyani zudlik bilan xabardor qilish;
- 5.2.8. Servisdan foydalanish va unga kirish uchun Kompaniya tomonidan belgilangan to'lovni o'z vaqtida to'lash.

5.3. Kompaniya quyidagi huquqlarga ega:

- 5.3.1. Servisdan foydalangan holda sodir etiladigan qonunga xilof harakatlarni aniqlash va ularga chek qo'yish bo'yicha barcha oqilona choralarni ko'rish;
- 5.3.2. mazkur Kelishuvga bir tomonlama tartibda o'zgartirishlar kiritish;
- 5.3.3. Servisning mazmuni, tuzilishi va tashqi ko'rinishini belgilash, shuningdek, muayyan servislarga kirish uchun Servisdan foydalanish imkoniyatini taqdim etish yoki bekor qilish;
- 5.3.4. Foydalanuvchi mazkur Kelishuvni va/yoki O'zbekiston Respublikasi qonunchiligini buzgan taqdirda, Kompaniya uning uchun Servisdan foydalanish imkoniyatini to'xtatib qo'yishga haqli;
- 5.3.5. Kelishuv doirasidagi huquq va majburiyatlarni amalga oshirish maqsadida har qanday uchinchi shaxslarni jalb etish;
- 5.3.6. Servisning istalgan bo'limida reklama va/yoki boshqa ma'lumotlarni joylashtirish;
- 5.3.7. quyidagi hollarda to'xtatib turish sabablari bartaraf etilguniga qadar Servisdan foydalanish imkoniyatini bir tomonlama tartibda to'xtatib turish:
 - tarmoqdagi uskunalarda montaj, ishga tushirish-sozlash, profilaktika, avariya ishlari olib borilganda, texnik xizmat ko'rsatilganda yoki uskunalar modifikatsiya qilinganda, Kompaniya yoki uchinchi shaxslar uskunalarida texnik nosozliklar yuzaga kelganda va ular ishdan chiqqanda.
 - Foydalanuvchi tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligini buzadigan va/yoki Kompaniyaga, uchinchi shaxslarga zarar yetkazadigan harakatlar sodir etilganining belgilari aniqlangan taqdirda;
 - Servisdan tijoriy maqsadlarda (qayta sotish uchun) foydalanilgan, Kompaniya va/yoki huquq egalari intellektual huquqlari har qanday usulda buzilgan taqdirda;
 - Kompaniya O'zbekiston Respublikasining biror-bir davlat, tartibga soluvchi yoki boshqa vakolatli organidan qonuniy farmoyish olgan taqdirda;
- 5.3.8. Foydalanuvchidan Kelishuv shartlarini bajarish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni olish;
- 5.3.9. muayyan yoshdagi auditoriyaga mo'ljallangan Servisga kirishda yosh cheklovlarini belgilash, bu Kompaniya tomonidan ko'rsatilgan yoshga to'lmagan shaxslar bunday materialdan foydalanish yoki uni tinglashdan tiyilishlari shartligini anglatadi. Kompaniya bu haqda Servisda axborot mahsuloti belgilarini ko'rsatish orqali yoki Foydalanuvchi muayyan yoshdagi auditoriyaga mo'ljallangan audiofaylni tinglashga uringanida axborot xabarlarini vositasida Foydalanuvchini xabardor qilishi mumkin;

5.3.10. mazkur Kelishuv va/yoki O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa huquqlarni amalga oshirish.

5.4. Kompaniya majburiyatlari:

5.4.1. Foydalanuvchiga mazkur Kelishuv shartlariga hamda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq Servisdan foydalanish imkoniyatini taqdim etish;

5.4.2. Servisdan foydalanishni qiyinlashtiradigan yoki yomonlashtiradigan favqulodda vaziyatlar yuzaga kelgani haqida Foydalanuvchini o'z vaqtida xabardor qilish;

5.4.3. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida va ushbu Kelishuvda nazarda tutilgan holatlar bundan mustasno, Foydalanuvchini ro'yxatdan o'tkazish/avtorizatsiya qilish chog'ida undan olingan ma'lumotlarning, shuningdek, Foydalanuvchining Servisdan foydalanishi munosabati bilan Kompaniya ixtiyorida bo'lgan boshqa axborotning maxfiyligini saqlash;

5.4.4. Servis ishida yuzaga kelgan nosozliklar, uzilishlar yoki sifatning yomonlashuvini bartaraf etish choralari ko'rish.

6. FOYDALANISH, TO'LOV VA OBUNA SHARTLARI

6.1. Servisdan foydalanishning joriy shartlari, Obuna turlari, ularning narxi, amal qilish muddati va boshqa muhim shartlar llovada va/yoki Kompaniyaning Saytida/Servisning Saytida joylashtiriladi. Obunani rasmiylashtirish bilan Foydalanuvchi ko'rsatilgan shartlarga o'z roziligini tasdiqlaydi. Obunalar ro'yxati va narxi Kompaniya tomonidan mustaqil belgilanadi. Kompaniya xizmatlar narxini bir tomonlama tartibda o'zgartirishga haqlidir. Obuna narxining o'zgarishi to'g'risidagi xabarnoma llova va Servis Sayti orqali yuboriladi. O'zgartirishlar Obunaning yangi davrlari uchun qo'llanadi.

6.2. Servisdan Cheklangan foydalanish rejimini qo'llamasdan to'liq foydalanish imkoniyati tanlangan va haqi to'langan Obuna asosida taqdim etiladi. Foydalanish imkoniyati 100% oldindan to'lov amalga oshirilgandan so'ng beriladi.

6.3. Obuna uchun to'lov Foydalanuvchining Hisob qaydnomasiga birlashtirilgan Bank kartasi orqali amalga oshiriladi. To'lovni o'tkazish va Obunani boshqarish (shu jumladan, Obunadan voz kechish) llova orqali bajariladi. Barcha hisob-kitoblar O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasi – so'mda amalga oshiriladi.

6.4. Foydalanuvchi Obunani rasmiylashtirish va mazkur Kelishuvni akseptlash orqali, Obuna to'lovi hisobidan o'zining Hisob qaydnomasiga birlashtirgan Bank kartasidan pul mablag'lari avtomatik tarzda davriy yechib olinishiga (keyingi o'rinlarda – **"Avtomatik yechib olish"**) o'z roziligini bildiradi. Obuna uchun Avtomatik yechib olish har oy Obunaning to'langan davri tugaydigan oxirgi taqvim kuni keyingi sanada amalga oshiriladi. Foydalanuvchi mazkur Kelishuvga muvofiq pul mablag'larini yechib olish to'g'risidagi farmoyishlar shaxsan o'zi tomonidan berilgan deb hisoblanishini, protsessing markazi va ekvayer-bankning bunday yechib olish bo'yicha harakatlari uning roziligi bilan bajarilishini tasdiqlaydi. Avtomatik yechib olish Foydalanuvchi Obunadan voz kechmagunicha amalga oshirilaveradi.

6.5. Obuna narxi – 9 999 (to'qqiz ming to'qqiz yuz to'qson to'qqiz) so'm.

6.6. Abonentlarga audiofayllarni tinglash uchun internet-trafik tariflanmaydi. Boshqa Foydalanuvchilar uchun Servisdan foydalanish umumiy tartibda amalga oshiriladi, bunda internet-trafik tegishli aloqa operatorlari va/yoki internet-provayderlar shartlariga muvofiq tariflanadi.

6.7. Yangi foydalanuvchilarga Servisdan foydalanishning dastlabki 30 (o'ttiz) taqvim kuni 1 (bir) so'm narxda taqdim etiladi. Agar Foydalanuvchi llova funksionalidan foydalanib Obunadan voz kechmasa, promo-davr tugaganidan so'ng Obuna standart shartlar asosida avtomatik tarzda ulanadi.

6.8. Obunani uzaytirish doirasida Avtomatik yechib olish uchun birlashtirilgan Bank kartasida yetarli pul mablag'lari bo'lmasa, Kompaniya to'lov muvaffaqiyatli yechib olinguniga qadar 60 (oltmish) kalendar kun davomida har kuni takroran pul yechishga haqli. Agar 60 (oltmish) kalendar kun ichida to'lov amalga oshirilmasa, Kompaniya buni tegishli to'lanmagan Obuna davri sanasidan boshlab Foydalanuvchining Obunadan voz kechishi deb hisoblashga haqli.

6.9. Foydalanuvchi llovaning "Obuna va to'lov" bo'limidagi "Obunani bekor qilish" tugmasini bosish orqali Obunani keyingi davr uchun uzaytirishdan voz kechishga haqli. Bu holda Obunaning amal qilishi to'langan davrning so'nggi kuni keyingi kundan boshlab to'xtatiladi.

7. JAVOBGARLIK VA UNING CHEKLANISHI

- 7.1. Tomonlar ushbu Kelishuv bo'yicha majburiyatlarni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga va ushbu Kelishuv shartlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.
- 7.2. Foydalanuvchi Servisdan foydalanish bilan bog'liq o'z harakatlari, shu jumladan, bunday harakatlar uchinchi shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarining buzilishiga olib kelsa, shuningdek, Servisdan foydalanishda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga rioya etilishi uchun uchinchi shaxslar oldida mustaqil ravishda javobgar bo'ladi. Kompaniya, agar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, boy berilgan foyda, olinmagan daromad, ma'lumotlarning yo'qolishi, moliyaviy va/yoki boshqa zararlar, shuningdek, bilvosita va/yoki kutilmagan zarar uchun javobgar emas.
- 7.3. Kompaniyaga bog'liq bo'lmagan texnik sabablarga, jumladan, aloqa tarmoqlari, internet-provayderlar, ilovalar do'konlari, to'lov tizimlari, Foydalanuvchi uskunolari yoki uchinchi shaxslar dasturiy ta'minotidagi uzilishlarga ko'ra Servisdan foydalanish imkoni bo'lmaganligi uchun Kompaniya javobgar emas.
- 7.4. Servis "as is" ("qanday bo'lsa, shunday") tamoyili asosida taqdim etiladi. Kompaniya Servisning Foydalanuvchining shaxsiy kutganlariga mos kelishiga, uning uzluksiz va xatosiz ishlashiga, shuningdek, Kompaniyaning aybi bilan sodir bo'lmagan texnik nosozliklar yuzaga kelganda Foydalanuvchi ma'lumotlarining saqlanishiga kafolat bermaydi.
- 7.5. Agar ayrim asarlar, albomlar yoki boshqa kontentning Servisda vaqtincha mavjud emasligi huquq egalari bilan litsenziya shartnomalarining o'zgarishi yoki bekor qilinishi yoxud Kompaniyaga bog'liq bo'lmagan boshqa holatlar bilan bog'liq bo'lsa, Kompaniya bunday mavjud emaslik uchun javobgar emas.
- 7.6. Foydalanuvchi o'z hisob ma'lumotlarining xavfsizligi uchun javobgardir. Kompaniya, Foydalanuvchining o'z ma'lumotlarini oshkor qilishi yoki boshqa harakatlari tufayli uning Hisob qaydnomasiga kirish huquqini qo'lga kiritgan uchinchi shaxslarning xatti-harakatlari uchun javobgar emas.
- 7.7. Kompaniya hech qanday holatda Foydalanuvchining Servisdan foydalanishi yoki foydalana olmasligi natijasida ko'rgan to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita zarari uchun, shuningdek, Kompaniyaning aybisiz yuz bergan xatolar, kamchiliklar, ishda uzilishlar, funksiyalarning o'zgarishi, nuqsonlar, ishda kechikishlar oqibatida kelib chiqqan ziyon uchun javobgar bo'lmaydi.
- 7.8. Agar ushbu Kelishuv bo'yicha majburiyatlarning to'liq yoki qisman bajarilmasligi Kelishuv tuzilgandan so'ng yuzaga kelgan va Kompaniya oldindan ko'ra bilmagan yoki oqilona choralar bilan oldini ola olmagan yengib bo'lmay kuch (fors-major) holatlari oqibatida sodir bo'lgan bo'lsa, Kompaniya bunday bajarilmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladi. Bunday holatlarga, jumladan, quyidagilar kiradi (lekin bular bilan cheklanmaydi): tabiiy ofatlar, harbiy harakatlar, ommaviy tartibsizliklar, davlat organlarining xatti-harakatlari, elektr energiyasi ta'minotidagi uzilishlar, epidemiyalar, global aloqa tarmoqlaridagi nosozliklar va boshqa favqulodda vaziyatlar.
- 7.9. Uchinchi shaxslarning huquq va manfaatlarini, shu jumladan mualliflik va turdosh huquqlarni buzgan holda Servisdan ruxsatsiz va/yoki tijoriy maqsadda foydalanish holatlari aniqlansa, Kompaniya ushbu qoidabuzarlikka yo'l qo'ygan Foydalanuvchining Hisob qaydnomasini bloklash va/yoki o'chirib tashlash huquqini o'zida saqlab qoladi.
- 7.10. Servisdan foydalanish tezligi va kontentning ijro sifati Foydalanuvchining internet aloqasiga, qurilmasiga hamda Kompaniyaga bog'liq bo'lmagan boshqa omillarga bog'liqdir. Kompaniya Foydalanuvchi yoki uchinchi shaxslar tarafidagi texnik cheklavlar bilan bog'liq sabablarga ko'ra foydalanish imkoni bo'lmaganligi uchun javobgar emas.

8. INTELEKTUAL MULK

- 8.1. Servisda joylashtirilgan barcha obyektlar, jumladan, audioyozuvlar, musiqa asarlari, qo'shiq matnlari, albom muqovalari, videomateriallar, dasturiy ta'minot, dizayn, interfeys, firma uslubi elementlari, ma'lumotlar bazalari va intellektual faoliyatning boshqa natijalari, shuningdek, Servisning o'zi umuman Kompaniya va/yoki boshqa huquq egalariining intellektual mulk obyektlari hisoblanadi hamda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va xalqaro huquq normalari bilan himoya qilinadi.
- 8.2. Kompaniyaning va/yoki tegishli huquq egasining oldindan yozma rozilgisiz Servisda joylashtirilgan intellektual mulk obyektlaridan har qanday tarzda foydalanish, jumladan, takrorlash, nusxa ko'chirish, qayta ishlash, tarqatish, barchaning e'tiboriga yetkazish, omma oldida ijro etish, Internet tarmog'iga joylashtirish yoki boshqacha tarzda foydalanish taqiqlanadi va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan javobgarlikka olib keladi.

- 8.3. Foydalanuvchiga kontentni himoya qilishning texnik vositalarini chetlab o'tish, o'chirish, o'chirib qo'yish yoki ularning ishiga boshqacha tarzda aralashish, shuningdek, kontent yoki Servis funksiyalaridan ruxsatsiz foydalanishga qaratilgan dasturiy yoxud apparat vositalaridan foydalanish taqiqlanadi.
- 8.4. Foydalanuvchi Servisdan va unda joylashtirilgan kontentdan faqat Servis taqdim etadigan funksiyalar doirasida shaxsiy, notijorat maqsadlarda tinglash uchun foydalanishga haqli. Kompaniya va (yoki) huquq egasining yozma roziligisiz Servisdan yoki uning kontentidan tijoriy maqsadlarda foydalanish man etiladi.

9. KELISHUVNING AMAL QILISH MUDDATI VA UNGA O'ZGARTIRISH KIRITISH TARTIBI

- 9.1. Kelishuv nomuayyan muddatga tuzilgan.
- 9.2. Kompaniya Kelishuvga Foydalanuvchini maxsus xabardor qilmasdan o'zgartirish kiritishi mumkin. Agar Kelishuvning yangi tahririda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, uning yangi tahriri Servisning llovasida/Saytida joylashtirilgan paytdan e'tiboran kuchga kiradi.
- 9.3. Kelishuvga har qanday o'zgartirish kiritilganidan keyin Foydalanuvchining Servisdan foydalanishda davom etishi uning ushbu o'zgarishlarga roziligini bildiradi. Agar Foydalanuvchi Kelishuv shartlariga rozi bo'lmasa, u Servisdan foydalanishni to'xtatishi shart.
- 9.4. Kelishuvning 5.3.7-bandiga muvofiq Servisdan foydalanish imkoniyati to'xtatib qo'yilganidan so'ng, to'xtatib qo'yish sabablari 30 (o'ttiz) kalendar kun ichida bartaraf etilmasa, Kompaniya Kelishuvni bajarishdan bir tomonlama bosh tortishga haqli.
- 9.5. Foydalanuvchi Kelishuvni bajarishdan bir tomonlama tartibda voz kechishga haqli:
 - 9.5.1. bu haqda Kompaniyani ushbu Kelishuvning 12-bo'limida ko'rsatilgan manzil bo'yicha yozma ravishda xabardor qilish orqali;
 - 9.5.2. Shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash va himoya qilish siyosatiga muvofiq o'zining Shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlashga roziligini chaqirib olish orqali.

10. AMALDAGI HUQUQ VA NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

- 10.1. Mazkur Kelishuv O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tartibga solinadi va talqin qilinadi.
- 10.2. Ushbu Kelishuvdan kelib chiqadigan har qanday nizo tinch yo'l bilan yoki Foydalanuvchining yozma murojaati asosida da'vo tartibida hal etiladi. Murojaatni ko'rib chiqish muddati va uning mazmuniga qo'yiladigan talablar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan belgilanadi.
- 10.3. Agarda yuzaga kelgan nizo da'vo tartibida hal etilmasa, u O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan tartibda Kompaniya joylashgan yerdagi tegishli sudga ko'rib chiqilishi lozim.

11. YAKUNIY QOIDALAR

- 11.1. Agar biron-bir sababga ko'ra mazkur Kelishuvning bir yoki bir nechta qoidasi haqiqiy emas yoki yuridik kuchga ega emas deb topilsa, bu holat Kelishuvning qolgan qoidalarining haqiqiylikiga yoki qo'llanilishiga ta'sir ko'rsatmaydi.
- 11.2. Agar Foydalanuvchi tomonidan aksincha isbotlanmasa, uning Hisob qaydnomasi yordamida bajarilgan har qanday harakatlar tegishli Foydalanuvchi tomonidan amalga oshirilgan deb hisoblanadi. Foydalanuvchi o'z Hisob qaydnomasiga ruxsatsiz kirilgan taqdirda, u bu haqda Kompaniyaga zudlik bilan xabar berishi shart.
- 11.3. Ushbu Kelishuvda bevosita nazarda tutilmagan barcha holatlarda Tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga amal qiladilar.

12. KOMPANIYA HAQIDAGI MA'LUMOT

"UNITEL" MChJ

Manzil: 100164, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Tepamasjid ko'chasi, 4-uy.

STIR: 201 838 002

IFUT: 61200